

**“KO‘RLIK” ROMANI: INSONIYATNING MA’NAVIY VA AXLOQIY
KO‘RLIGI TIMSOLIDA**

*Raxmiddinova Madina Mansurovna “Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili ” ta’lim
yo ‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Bo’riyeva Shahnoza

Annotatsiya: Joze Saramagoning “Ko‘rlik” romani zamonaviy adabiyotda eng chuqur falsafiy va ijtimoiy asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Asarda kutilmagan tarzda paydo bo‘lgan ko‘rlik epidemiyasi orqali yozuvchi insoniyatning ma’naviy inqirozini, axloqiy qadriyatlardan uzoqlashuvini va jamiyatning zaif tomonlarini ramziy shaklda tasvirlaydi. Tadqiqotda romanning asosiy g‘oyalari, ijtimoiy-psixologik tahlili hamda yozuvchining o‘ziga xos badiiy uslubi o‘rganiladi. Asarda ko‘rlik oddiy kasallik emas, balki jamiyatning ruhiy va axloqiy ko‘rligi sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda insonlarning asl mohiyati ochiladi: ba’zilar shafqatsiz va manfaatparast bo‘lib chiqsa, boshqalar birdamlik va rahm-shafqatni saqlab qoladi. Saramagoning uzun jumlar, kam tinish belgilar va allegoriyalarga asoslangan uslubi voqealarning uzluksiz oqimini ta’minlaydi hamda o‘quvchini bevosita matn ichiga tortadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Ko‘rlik” romani insoniyatning ichki zaifliklarini fosh etish orqali o‘quvchini jamiyatdagi axloqiy muammolar haqida chuqurroq o‘ylashga undaydi. Ushbu asar zamonaviy inson uchun dolzarb saboqlarni o‘zida mujassam etib, global ijtimoiy muammolarni qayta ko‘rib chiqishga chaqiradi.

Kalit so‘zlar: Joze Saramago, Ko‘rlik romani, axloqiy inqiroz, ma’naviy ko‘rlik, ijtimoiy-psixologik tahlil, falsafiy allegoriya, badiiy uslub, zamonaviy jamiyat, birdamlik va zo‘ravonlik, global muammolar.

Kirish: Portugaliyalik mashhur yozuvchi Joze Saramago adabiyotda falsafiy teranlik va badiiy yangicha uslubi bilan alohida o‘rin egallaydi. Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan ijodkorning asarlari insoniyatning ruhiy va ijtimoiy muammolarini chuqur ochib berishga qaratilgan. U yaratgan “Ko‘rlik” romani esa nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan betakror asarlardan biridir.

Asarda tasvirlangan kutilmagan ko‘rlik epidemiyasi oddiy kasallik sifatida emas, balki jamiyatdagi axloqiy va ma’naviy muammolarning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi shu badiiy vosita orqali insonlarning asl qiyofasini ochishga(o‘z jufti

haloliga xiyonat qilgan razillardan tortib garchi ularni inson deyish xato bulsada bazi bir xudbin inlarni), jamiyatning zaif tomonlarini ko'rsatishga erishadi. Shu boisdan ushbu asarni faqatgina badiiy nuqtai nazardan emas, balki falsafiy, ijtimoiy va psixologik jihatdan ham tadqiq etish zarur.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv davrida ham insoniyat turli shakldagi "ko'rlik"larga duch kelmoqda. Saramagoning romani esa o'quvchini insoniylik, birdamlik va mas'uliyat haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi.

Muhokama va natijalar: José Saramagoning *Blindness* (Ko'rlik) romani falsafiy va ijtimoiy jihatdan chuqur tahlil qilingan asarlar jumlasiga kiradi. Masalan, Nasrullah Mambrol "Analiz of José Saramago's *Blindness*" nomli maqolasida asarni Albert Kamyusning *The Plague* ("Vabo") asariga o'xshatadi, unda romandagi ko'rlik epidemiyasi butun jamiyatning ma'naviy inqirozga yuz tutganini ramziy ifodalagan. Muallif Saramagoning uslubini — uzun syujetlar, kam bo'linmalar, ko'p ovozli narratsiya adabiy xususiyatlarini puxta tahlil qiladi va bu uslub romano non-mavhum, tushunishga undovchi atmosferani yaratganidan dalolat beradi .

Bundan tashqari, Hanan Abbas Hussein tomonidan yozilgan "Dystopia in 'Blindness' by José Saramago" tadqiqotida romandagi totalitar jamiyat modeli va undagi manfaatsiz fuqaroning o'rnini ko'rib chiqadi. Muallif doktor xotini figurasi orqali umid va insoniylikning mumkin bo'lgan kuchini ko'rsatadi, bu esa distopiya kontekstida muhim ijtimoiy tahlilni yuzaga keltiradi .

Boshqa tadqiqotlar, masalan "Animal Imagery in José Saramago's *Blindness*" maqolasida hayvoniy simbolika va ruhiy ko'rlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil etiladi. Mualliflar asar matnidagi hayvon modelliklarini insonlarning axloqiy degradatsiyasi bilan bog'lab, o'quvchini mazmuni o'z ongida qayta qurishga undaydi .

Shuningdek, pandemiya kontekstini kengaytirib, ekologik makon va kasallik o'rtasidagi munosabatni o'rganishga qaratilgan geo-ekokritik tahlil ham mavjud .

1. Falsafiy tahlil

José Saramago romanda ko'rlikni tashqi bir kasallik emas, balki insoniyatning ichki dunyosidagi axloqiy inqiroz ramzi sifatida talqin qiladi. Kasallikning birdaniga va izohsiz kelib chiqishi aslida insonning ma'naviy tayanchlarini yo'qotganidan darak beradi. Muallif o'quvchini shunday savollar ustida o'ylashga undaydi: odamzod texnologiya va taraqqiyotdan mag'rurlanib yashar ekan, insoniy qadriyatlar qachon unutilib ketdi? Insoniyatning eng katta falokati — tashqi ko'rlik emas, balki ong va vijdonning ko'r bo'lishidir.

Romanda ta'kidlanishicha: "Ularning ko'zlari bor edi, ammo ular ko'rmas edi." Bu jumla butun asarning falsafiy mohiyatini ifodalaydi. Insonlar moddiy narsalarni ko'ra olsalar-da, adolat, mehr va birdamlikni ko'ra olmaydi. Shu bois ko'rlik kasalligi kelganda odamlar faqat jismonan emas, balki ruhiy va axloqiy jihatdan ham inqirozga yuz tutadi. Saramago badiiy ramz orqali "ko'r odam" obrazini butun insoniyat timsoliga aylantiradi.

2. Ijtimoiy-psixologik tahlil

Romanda ko'rlik epidemiyasi boshlanishi bilan jamiyatdagi barcha ijtimoiy tuzilmalar yemirila boshlaydi. Hukumat tartibni saqlash uchun ko'rlarni karantin zonasiga joylashtiradi, biroq bu joy tezda insoniylikdan yiroq, zo'ravonlik hukmron bo'lgan makonga aylanadi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, inson tashqi qonun va tizimlarga suyanib yashaydi, ammo ular yo'qolganda asl tabiatini namoyon qiladi.

Shifokor xotini — yagona ko'ruvchi inson sifatida asarda markaziy o'rin egallaydi. U boshqalarning og'ir ahvolini ko'rib, o'zini ham ularga teng deb biladi. Uning so'zlari juda ta'sirli: "Men ko'r emasman, lekin ko'rganlarim meni azobga giriftor qiladi." Bu iqtibos orqali muallif shuni ko'rsatadiki, ko'rlikning o'zi emas, balki ko'rlikning oqibatlarini — odamlarning bir-biriga qilgan yovuzligi insonni eng ko'p qiynaydi.

Inqirozda odamlarning turlicha qiyofasi ochiladi: ba'zilari ochko'zlik va manfaati uchun boshqalarni xo'rqlasa, boshqalar esa o'z hayotini xavf ostiga qo'yib yordam berishga harakat qiladi. Bu psixologik qarama-qarshilik inson tabiatining ikki qirrasini ko'rsatadi: yovvoyilik va insoniylik. Asarda jamiyatning axloqiy chegaralari qanday tez yemirilishi ham aniq tasvirlangan.

3. Badiiy uslub tahlili:

Saramagoning uslubi o'ziga xosligi bilan o'quvchini darhol romanning ichiga tortadi. U ko'p hollarda tinish belgilarini kamaytirib, uzun jumlar orqali voqealarning uzluksiz oqimini beradi. Dialoglar ham odatdagidan farqli tarzda, alohida satrda emas, balki izchil jumlar ichida beriladi. Bu uslub bir qarashda murakkab tuyulsa-da, aslida o'quvchini matndan ajramay, uzluksiz oqimda o'qishga majbur qiladi.

Romanning dastlabki sahnasida haydovchi ko'r bo'lib qolganida muallif shunday yozadi: "Avval hammasi yorug'likka to'ldi, keyin qorong'ilik ham yo'qoldi — faqat ko'r-ko'rona oq bo'shliq qoldi." Bu jumla nafaqat ko'rlik kasalligining boshlanishini, balki butun asar davomida davom etadigan metaforik oq bo'shliqni bildiradi. Yozuvchi o'quvchini ma'no qidirishga undaydi, uni passiv emas, faol o'quvchiga aylantiradi.

Shuningdek, romanda allegoriya va ramzlar keng qo'llanadi. Masalan, shifokor xotini ko'ruvchi yagona obraz sifatida insoniyatning so'nggi umidini bildirsa, oq rangli ko'rlik tasviri barcha odamlardagi umumiy falokatni ifodalaydi. Shu jihatlar roman badiiy uslubini falsafiy va psixologik chuqurlik bilan uyg'unlashtiradi.

José Saramagoning Ko'rlik romani insoniyat taqdiriga bag'ishlangan eng kuchli falsafiy allegoriyalardan biridir. Asar yuzaki qaraganda epidemiyani tasvirlagandek ko'rinadi, biroq aslida bu oddiy kasallik emas, balki jamiyatning ma'naviy ko'rlikka muhtalo bo'lishini ifodalaydi. Muallif asarda shunday yozadi: "Odamlar birdaniga oq ko'rlikka muhtalo bo'lishdi, hamma narsa yorug' oqshomga o'xshab ketdi, ammo hech kim hech narsani ko'rmadi." Bu jumla insonning tashqi ko'rish qobiliyati bilan ichki ongiy ko'zi o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi. Yorug'lik bo'lishiga qaramay, ko'rishning yo'qolishi aslida ma'naviy falokat ramzidir.

Asarda shifokor xotini obrazi alohida o'rin tutadi. U yagona ko'ruvchi bo'lib, boshqalarning fojeasini ham, shafqatsizligini ham o'z ko'zlari bilan ko'radi. U bir joyda shunday deydi: "Men ko'r emasman, lekin ko'r bo'lganlarning hammasidan ko'proq azob chekaman." Bu iqtibos orqali muallif insonning boshqalarga hamdardlik qilishi qanchalik og'ir yuk ekanini ko'rsatadi. Bu obraz orqali jamiyatdagi so'nggi umid va insoniylikning mavjudligi yoritiladi.

Romanda ko'plab dialoglar orqali inson tabiatining asl qiyofasi ochib beriladi. Masalan, ko'rlikka chalinganlarning biri yig'lab shunday deydi:

"Bizni kim boshqaradi endi, kimga ishonamiz?"

Shunda boshqa bir ovoz javob qaytaradi:

"Hech kim, endi hamma o'zi uchun, kim kuchli bo'lsa o'sha yashaydi."

Bu dialog jamiyatning qanday qilib birdamlikdan yovvoyilikka o'tishini, insonlarning qo'rquv va manfaat ta'sirida qanday tez o'zgarishini ko'rsatadi. Saramago o'quvchini o'ylashga majbur qiladi: tartib va qonunlardan mahrum bo'lsa, odamlar aslida qanday yashashadi? Shuningdek, yozuvchi ijtimoiy degradatsiyani tasvirlashda hayvoniy tasvirlardan keng foydalanadi. Masalan, muallif odamlarni *"och bo'rilar kabi o'zaro talashayotgan"* holatda tasvirlaydi. Bu metafora insoniyatning ongdan hayvoniyni instinktlariga qaytishini ramziy ifodalaydi. Shu orqali muallif insoniyatning tashqi madaniyati qanchalik nozik va uni yo'qotish naqadar oson ekanini ochib beradi.

Romanning badiiy uslubi ham xulosaga kiritilishi lozim. Saramago uzun jumladan foydalanadi, dialoglarni ham alohida belgilar bilan ajratmaydi. Bu uslub voqealarning uzluksizligini ta'minlaydi va o'quvchini o'sha dahshatli muhit ichida yashayotgandek his qildiradi. Masalan, muallif bir joyda deydi: "Ular gapirardi, biroq kimning ovozi kimga tegishli ekanini bilishning imkoni yo'q edi, go'yo so'zlar ham ko'rlikka uchragandek, har bir jumla qorong'ulik ichida yo'qolib borardi." Bu jumla nafaqat ko'rishning, balki aloqa va muloqotning ham izdan chiqqanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Ko'rlik romani faqat epidemiyani emas, balki insoniyatning asl ko'rlikini – adolat, insoniylik, birdamlik va rahm-shafqatni ko'rmaslikni tasvirlaydi. Shifokor xotini umid ramzi bo'lsa, boshqa ko'r qahramonlar odamzodning qo'rquv, xudbinlik va zo'ravonlikka moyilligini ifodalaydi.

Asar o'quvchini o'ylashga, o'zini va jamiyatni qayta ko'rib chiqishga undaydi. Saramago shu roman orqali ogohlantiradi: agar biz ko'zimiz ochiq holda ham haqiqatni ko'rmasak, kelajak zulmat bo'lishi muqarrar.

Xulosa: Ba'zi asarlar vaqtimizni mazmunli o'tkazish uchungina mutolaa qilinadi, biroq ayrimlari bor-ki, ular qalb va tafakkurimizga bitilib, dunyoni ko'rish tarzimizga ta'sir o'tkazadi, hatto uni tubdan o'zgartirib yuboradi. "Ko'rlik" romani ham ana shunday asarlardan bo'lib, insoniy qarashlarimizni larzaga soladigan, xotiradan o'chmas darajadagi nodir ijod mahsulidir. Uni mutolaa qilar ekansiz, ehtimol ruhingiz bir oz charchar, ammo bu asar o'qilishi lozim bo'lgan durdona ekaniga shubha yo'q. Hayolimni olgan bu iqtiboslar meni juda ko'p o'ylantirdi.

IQTIBOSLAR:

"Ko'z ehtimol inson tanasidagi ruh mujassam bo'lgan yagona organdir."

"Biz allaqachon yarim o'lik jonzotlarmiz, — dedi biri. — Yo'q, biz yarim tirik odamlarmiz, — deya e'tiroz bildirdi shifokorning rafiqasi."

"Tuyg'ularni ifodalaydigan so'zlardan voz kechish aslida asta-sekin ko'rlikka yuz tutish demakdir."

"Ko'rlar saltanatida bir ko'zli odam podshoh bo'ladi."

“Hech narsa demasang, seni yanada chuqurroq anglayman. Zero, so‘zlarning qadri qolmagan lahzalar ham mavjud.”

“Agar tartib va intizomga bo‘ysunmasak, ochlik va qo‘rquv bizning yagona hukmdorimiz bo‘ladi.”

Adabiyotlar:

1. Hussein, H. A. (2019). Dystopia in Blindness by José Saramago. *Journal of Literature, Languages and Linguistics*, 58, 35–42.
2. Mambrol, N. (2022, October 9). Analysis of José Saramago’s Blindness. *Literariness*. <https://literariness.org/2022/10/09/analysis-of-jose-saramagos-blindness/>
3. Saramago, J. (1997). *Blindness* (G. Pontiero, Trans.). Harvill Press. (Original work published 1995)
4. Shahzad, W., & Riaz, M. (2016). Animal imagery in José Saramago’s *Blindness*. *International Journal of English and Literature*, 7(1), 1–7.
5. Singh, R. (2021). Pandemic, space and survival: A geo-ecocritical reading of José Saramago’s *Blindness*. *New Literaria: An International Journal of Interdisciplinary Studies in Humanities*, 2(2), 129–138.
6. *Literary Theory and Criticism*
<https://literariness.org/2022/10/09/analysis-of-jose-saramagos-blindness/>